

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIK KOMPONENTLARINI PEDAGOGIK RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI.

Maxliyo Turopova Erkin qizi

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

E-mail: turopovamaxliyo026@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentlik komponentlarini pedagogik rivojlantirish shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Ijodiy kompetentlik, o'qituvchining nafaqat pedagogik bilimlariga, balki amaliy yondashuvlarga asoslangan ijodiy fikrlash qobiliyatiga ham bog'liqdir.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ijodiy kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, metodik yondashuvlar, kreativ fikrlash, kasbiy rivojlanish, ta'lim tizimi.

Аннотация: В статье анализируются условия педагогического развития компонентов творческой компетентности будущих учителей начальных классов. Творческая компетентность зависит не только от педагогических знаний, но и от способности к творческому мышлению, основанному на практическом подходе.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, творческая компетентность, педагогические условия, методические подходы, креативное мышление, профессиональное развитие, образовательная система.

Annotation: This article analyzes the conditions for the pedagogical development of the components of creative competence in future primary school teachers. Creative competence depends not only on pedagogical knowledge but also on the ability for creative thinking based on practical approaches.

Key words: future primary school teachers, creative competence, pedagogical conditions, methodological approaches, creative thinking, professional development, educational system.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentlik komponentlarini muvaffaqiyatli pedagogik rivojlantirish uchun biz quyidagi akmeologik, tizimli, kompetentlilik, shaxsiy-faoliyat, kontekst, androgogik, yaxlitlik, tizimli-faoliyat kabi yondashuvlarni aniqladik.

Eng muhim yondashuv akmeologik yondashuvdir. Olimlaridan B.B.Ma'murov bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish, D.Mahmudova akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etish masalalari, G.H.Tillaeva akmeologiya asoslari, A.A.Xaitov bo'lajak o'qituvchilarni ekologik savodxonligini oshirishda akmeologik yondashuv g'oyasini ilgari surganlar. A.V.Jarinov akmeologik monitoring tizimida shaxsning sub'ektivligini rivojlantirish, V.G.Zazikin muvaffaqiyatga erishishning psixologik va akmeologik asoslari, A.M.Leontev akmeologik yondashuv asosida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish masalalarini o'rgangan.

Demak, bugungi kungacha akmeologiya sohasida olib borilgan tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini turli yo'llar bilan akmeologik bilimlar asosida rivojlantirish, akmeologik shart-sharoitlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish kabi ko'plab usullar tadqiq etilgan, shuningdek, shaxsning psixologik xaritasi, uning xarakter xususiyatlarini aniqlash hamda uning u yoki bu sohaga qiziqishi alohida o'rganilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy malakasini rivojlantirishning pedagogik modelini ijodiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan yakuniy natijaga erishish maqsadiga bo'ysunadigan o'zaro bir-biriga bog'liq strukturaviy va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan akmeologik tizimdir.

Tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim jarayonida ijodiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish hisoblanadi. «Rivojlantirish» tushunchasini tahlilini ko'rib chiqish lozim. Rivojlantirish - o'qituvchilarning berilgan, belgilangan xususiyat va shaxsiy sifatlarga ega bo'lishlarini ta'minlovchi maqsadga muvofiq pedagogik ta'sirdir. Yangi sifatlar, jihatlarni egallash o'qituvchining o'zi tegishli funksiyalarni bajarishi jarayonida amalga oshadi. Shunga ko'ra, aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonda shakllanishi orqali o'qituvchining professional ta'lim funksiyalarini va ijtimoiy rolini psixologik- pedagogik hisoblanishdan iboratdir. Shaxsning gnoseologik, aksiologik jarayonlarini tartibga soluvchi salohiyatlariga muvofiq - bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchilarining ijodiy kompetentlik komponentlarini faollashtirish jarayoni pedagogning shaxsiy faoliyati va mas'uliyatini aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda yuksaltirish jarayonidir.

Biz pedagogik modelni tajriba-eksperimental ishlar uchun tizimli- tarkibiy asosi deb hisoblaymiz. «Modellashtirish ob'ektlarning voqea va hodisalar jarayonlari hamda tizimlarini jamlash va modellarini o'rganish, xususiyatlarini aniqlash yoki takomillashtirib yangi modellar usullarini rasionallashtirish yordamida tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotimiz doirasida modellashtirishning mantig'i quyidagicha bo'ldi: nazariya va dastlabki tadqiqotlar o'rganilayotgan hodisa haqida tasavvur beruvchi va keyingi tajriba ishlari jarayonida tekshiriladigan va aniqlanadigan faraz vazifasini bajaruvchi model ko'rinishida aks etadi, Tadqiqot ishimizda pedagogik modelimizni takomillashtirish imkoniyati bor. Ushbu model pedagogik faoliyatning aniqmas ketma-ketligi bo'lib, ma'lum maqsadli va mazmunli yo'naltirish mezonlari asosida natija hosil qilish jihatlari ko'rsatkichlari mavjud bo'lishini taqozo etadi. «Model» - o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa yoki jarayonning u yoki boshqa tomonlarini tavsiflovchi munosabatlar tizimi sifatida ta'riflanadi. Ushbu tadqiqot ishlari doirasida qurilgan va qo'llanilgan pedagogik modelning muhim kognitiv vazifasi uning ijodiy izlanish manbai bo'lib xizmat qilishidir.

Demak, modellashtirish nafaqat real dunyodagi hodisa va jarayonlarni aks ettirish metodlaridan biri sifatida, balki ushbu hodisa haqidagi bilimlarimizning haqiqat ekanligini tekshirishning ob'ektiv usuli sifatida ham ko'rib chiqiladi. Jihatlarining xilma-xilligiga qaramay, ularni bir-biri bilan modelning tushunchasining birinchi navbatda uning bilish vositasi sifatida birlashtiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirishning akmeologik tizimi tizimning tarkibiy elementlarining boshlang'ich holati va yakuniy istalgan natija o'rtasidagi bog'lanishlar hisoblangan quyidagi asosiy funksional elementlarni o'z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

o'z tarkibiga o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish uchun o'qituvchining motivasiyasi bilan bog'liq harakatlar, shu jumladan, mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan davrga mo'ljallangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirish orqali mustaqil ta'lim dasturini qadriyatga

yo'naltirish, o'zini rivojlantirishning alohida traektoriyasini «qurishni» olgan qadriyat-motivasion komponenti;

bilim va ko'nikmalar jamlanmasi orqali boshlang'ich maktabda ijodiy faoliyatni rivojlantirish va amalga oshirishni tashkil etish kognitiv- konstruktorlik elementining asosi hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy qiyinchiliklarini muammoli vaziyatlarni loyihalashtirish va hal qilish asosida ijodiy faoliyatda yengib o'tishda aniq maqsadlarga erishish uchun alohida tayyorgarlik ko'rish hamda va mohir o'qituvchi bilan o'zaro faoliyatga asoslanadi;

pedagogik faoliyatning o'zini tahlil qilish va tashxislash, natijalarni tuzatish va nazorat qilish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish darajasini aniqlashni o'z ichiga olgan reflektiv-maqsadli komponent.

Ushbu tarkibiy va funksional komponentlarni aniqlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishni o'qituvchi professionalizmini rivojlantirishga yordam beruvchi murakkab akmeologik jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Tadqiqotchi olim N.S.Sayidaxmedovning funksional jarayonlar nazariyasi orqali akmeologik tizimda tizimni rivojlantiruvchi omil - bu o'qituvchi shaxsi va ijodiy faoliyatida yangi paydo bo'lgan narsalar, tushunchalar, hodisalar, voqealar hamda jihatlaridan iborat bo'lgan natija hisoblanadi. Ushbu yangiliklar pedagoglarga yuqori darajadagi kreativlik, mahsuldorlik, professional faoliyat va uning natijalaridan qoniqishni ta'minlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot ishlarining yakunida o'qituvchilarda ijodiy kompetentlikning paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan yangiliklarning majmui belgilangan holatda yakuniy natijaga u yoki bu sifatning shakllanishi yoki rivojlantirishni loyihalashtirishga erishish orqali jarayon eng mahsuldor hisoblanadi. Pedagogik faoliyatni monitoring qilib, biz ijodiy malakasini rivojlantirish ustida ishlaydigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy faoliyatning pedagogik shart sharoitlariga ehtiyojning yo'qligi; ijodiy faoliyat natijalarida qadriyat munosabatlarning shakllanmaganligi; o'qituvchining oliy pedagogik ma'lumotli o'qituvchilarning bilim olish faoliyatining pastligi; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy malakasini rivojlantirishda hamkasblarining qo'llab-quvvatlashlari yetishmasligi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishini aniqladik.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tasarruflarida mustaqil ta'lim uchun yetarli pedagogik shakl, mustaqil ta'lim, ijodkorlik va vosita boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini o'ta jiddiy arsenaliga ega bo'ladi. Bunda boshlang'ich maktabning ta'lim jarayoni yangiliklarini joriy etish g'oyalari va ijodiy faoliyat hamda qadriyatlar asosida ijodiy faoliyatiga va natijalari orqali qurilgan mustaqil ta'lim faoliyatining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda qiyinchiliklarga uchraydi.

Biz o'rganayotgan masala nuqtai nazaridan, shartlarni faqat vaziyatga, holatga, ob'ektlar yig'indisigacha qisqartirish noto'g'ri hisoblanadi, chunki bo'lajak bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy tafakkuri yangilik bo'lib, u subyektiv va obyektiv, ichki va tashqi, mohiyat va ta'sirning, ehtimollik va muqarrarlikning yaxlitligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudova D. Akmeologik yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etish masalalari. Jamiyat va innovatsiyalar. – Obshestvo i innovatsii – Society and innovations Special Issue. – 6 (2021) / ISSN 2181-1415. – 139-144 b
2. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dokt. diss. – T.: 2018, – 264 b.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". T; 2010. B. 707.
4. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining didaktik tafakkurini shakllantirish texnologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2013.– 128 b.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishnig nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent. – 2007.
6. Muslimov N.A., Turakulova A.I., Qodirov M.M., Umarov X.A. Kasb ta'limi o'qituvchisining axborot olish tafakkurini shakllantirish texnologiyasi – T.: TDPU Rizografi, 2014. y.